

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA NOTARIAT FAOLIYATINING AHAMIYATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

To‘raqulova Gulsanam

Notarius stajyori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20539000>

Kirish

Huquqiy demokrarik davlat qurishda fuqarolar va yuridik shaxslarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vazifani amalga oshirishda notariat instituti alohida ahamiyat kasb etadi. Notariat fuqarolik-huquqiy munosabatlarning qonuniyligini ta’minlash, hujjatlarning haqiqiylikini tasdiqlash va huquqiy nizolarning oldini olishga xizmat qiladi. Shu sababli notariuslarning faoliyati jamiyatda huquqiy barqarorlikni ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Notariat tushunchasi va uning vazifalari

Notariat – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan notarial harakatlarni amalga oshirish orqali fuqarolar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi huquqiy institutdir. Notariatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Bitimlarning qonuniyligini tekshirish va tasdiqlash;
- Ishonchnomalar , rozilik arizalari va boshqa hujjatlarni tasdiqlash;
- Meros huquqi bilan bog‘liq masalalarni rasmiylashtirish;
- Hujjatlar nusxalarining haqiqiylikini tasdiqlash;
- Fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish va ularga huquqiy tushuntirishlar berish.

Notarius o‘z faoliyatida qonuniylik, xolislik, mustaqillik va maxfiylik tamoyillariga amal qiladi.

Notariatning jamiyatdagi o‘rni

Notariat fuqarolar o‘rtasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan ko‘plab muammolarning oldini oladi. Masalan, ko‘chmas mulkni oldi-sotdi qilish, hadya etish yoki meros masalalarida hujjatlarning to‘g‘ri rasmiylashtirilishi kelajakda sud nizolarining kamayishiga xizmat qiladi.

Notarial tasdiqlangan hujjatlar yuqori ishonchga ega bo‘lib, ularning huquqiy kuchi katta hisoblanadi. Shu sababli fuqarolar va tashkilotlar notarius xizmatlaridan keng foydalanadilar. Bundan tashqari, notariuslar fuqarolarga huquqiy maslahat berib, ularni qonunga zid harakatlardan ogohlantiradilar. Bu esa jamiyatda huquqiy madaniyatning yuksalishiga yordam beradi.

O‘zbekistonda notariat tizmining modernizatsiya qilinishi

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda notariat tizimini isloh qilish va raqamlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Elektron notariat tizimining joriy etilishi natijasida xizmatlar sifati va tezkorligi sezilarli darajada oshdi. Elektron ma’lumotlar bazalari orqali notariuslar turli davlat organlari bilan tezkor axborot almashish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu esa fuqarolardan ortiqcha hujjatlar talab qilinishining oldini olmoqda hamda korrupsiyaviy omillarni kamaytirishga xizmat qilmoqda.

Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi notariat xizmatlarining shaffofligi va ochiqligini ta’minlashda ham muhim rol o‘ynamoqda.

Notarius stajyorining o‘rni

Notarius stajyori kelajakdagi malakali mutaxassis sifatida notariat faoliyatining barcha jihatlarini chuqur o‘rganishi lozim. Stajirovka davomida qonunchilikni amlaiyot bilan bog‘lash,

hujjatlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish va fuqarolar bilan muloqot madaniyatini rivojlantirishi muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Notariat fuqarolar va yuridik shaxslarning huquq hamda manfaatlarini himoya qiluvchi muhim huquqiy institut hisoblanadi. U huquqiy munosabtlarning barqarorligini ta'minlab, nizolarning oldini olishga xizmat qiladi. O'zbekistonda notariat tizimining raqamlashtirilishi va takomillashtirilishi aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini yanada oshirmoqda.